

TIBBIY TA'LIM YO'NALISHLAR TALABALARINING XORIJIY TIL KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLAR

Tuychibayeva Maftuna Baxodirovna

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti tayanch-doktoranti

ORCID: 0009-0000-8354-2988

maftunatuychibaeva@gmail.com

Annotatsiya; Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri bu nafaqat tibbiy ta'lim talabalarining kasbiy, balki ularning kasbiy chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat. Bu esa ushbu o'rganilayotgan jarayonning mavjud pedagogik sharoitlarini qayta ko'rib chiqishni, va shu bilan birga mamlakatimiz va xalqaro jamiyatning rivojlanish tendentsiyalariga javob beradigan pedagogik sharoitlarni izlashni belgilaydi va talabalarning kasbiy chet tili kompetensiyalarini rivojlantirish shartlari, oliy ta'lim muassasasining o'qitish jarayonida va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida o'z-o'zini tarbiyalash maqsadida talabalarning kasbiy chet tilidan foydalanishga tayyorligini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu taqdim etilayotgan tadqiqotimizda asosiy e'tibor o'quv - uslubiy pedagogik sharoitlarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tildagi kompetensiyalar, pedagogik shart, kasbiy chet tili.

Abstract. Today, one of the most important areas of development in our country's higher education system is not only the professional training of medical students, but also the enhancement of their communicative competence in professional foreign languages. This requires a reconsideration of the existing pedagogical conditions involved in the learning process, as well as the search for new pedagogical environments that correspond to the developmental trends of both our country and the global community. In particular, it is essential to create conditions that support the development of students' professional foreign language competence—both within the educational process of higher education institutions and in their future professional careers. This includes developing students' readiness to use professional foreign language skills for the purpose of independent learning and self-development. The focus of this research is directed primarily toward the educational and methodological pedagogical conditions necessary to support this process.

Keywords: language competencies, pedagogical condition, professional foreign language.

Аннотация: *В настоящее время одним из важнейших направлений развития системы высшего образования в нашей стране является не только профессиональная подготовка студентов медицинских вузов, но и развитие их коммуникативной компетенции в области профессионального иностранного языка. Это требует переосмысления существующих педагогических условий образовательного процесса, а также поиска новых педагогических подходов, соответствующих тенденциям развития как нашей страны, так и мирового сообщества. Особое значение приобретает создание условий, способствующих формированию профессиональной иноязычной компетенции студентов как в рамках учебного процесса в высших учебных заведениях, так и в их будущей профессиональной деятельности. Это также включает в себя развитие готовности студентов использовать иностранный язык для самообразования и личностного развития. Данное исследование сосредоточено в первую очередь на изучении образовательных и методических педагогических условий, необходимых для поддержки данного процесса.*

Ключевые слова: языковые компетенции, педагогические условия, профессиональный иностранный язык.

Mamlakatimiz taraqqiyotining zamonaviy ta'lim bosqichida davlat ta'lim standartlari asosida doimiy jadal o'zgarishlar, rivojlanish va takomillashtirish olib borilmoqda. Bu esa oliy ta'limga yondashuvlarni ham, ushbu qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishning pedagogik shartlarini ham alohida o'quv fanlari misolida qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi (misol uchun, "Tibbiyotda xorijiy til" fanini o'rganish jarayonida tibbiy ta'lim talabalarini samarali kasbiy chet tili kompetentsiyalarini rivojlantirish masalalari). Shu sababli, tibbiy ta'lim talabalarining kasbiy chet tilini amaliy bilishlari bir tomondan xalqaro aloqa tili sifatida (shu jumladan kasbiy), ikkinchi tomondan, mamlakatimiz davlat ta'lim standartida ko'rsatib o'tilgan barcha ma'lumotlarga ega bo'lgan, shuningdek, talabalar tomonidan "Tibbiyotda xorijiy til" fanini o'rganish jarayonida o'zlashtirilgan kompetensiyalar tibbiyot oliy o'quv yurtining bitiruvchisini shakllantirishning muhim vositasi sifatida dolzarb bo'lib qoladi.

Ushbu tadqiqotimiz "Tibbiyotda xorijiy til" o'quv fani bo'yicha o'quv yo'nalishi: 60910200 "Davolash ishi" (bakalavr darajasi) doirasida o'tkazilgan bo'lib, ushbu yo'nalishning 1-bosqichi uchun o'quv reja bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun 60 soat, talabaning mustaqil ishi uchun 60 soat, jami fan uchun 120 soat ajratilgan. Tadqiqotimiz Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida amalga oshirildi. Biz tomondan taklif etilayotgan tadqiqotda biz tibbiy ta'lim talabalarining kasbiy chet tilidagi kompetentsiyalarini diagnostik tahlilga asoslangan holda rivojlantirish nuqtai nazaridan yuqoridagi mamlakatimiz davlat ta'lim standartini o'rganamiz.

Biz ilmiy-tadqiqot ishimizning ustida ishlash jarayonida bir-birini to'ldiruvchi quyidagi bir qator usullardan foydalandik: ushbu muammo bo'yicha nazariy manbalarni tahlil qilish; to'plangan shaxsiy pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish; "Tibbiyotda xorijiy til" fanidan o'quv dasturlarini tahlil qilish (o'qitish yo'nalishlari bo'yicha 60910200 "Davolash ishi" (bakalavr darajasi); chet tilini o'qitish jarayonida foydalaniladigan o'quv qo'llanmalarini tahlil qilish; kuzatish va talabalar bilan suhbat o'tkazish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya muammolari. - M., 1993.
2. Konsheva A.V. Chet tillarini o'qitishni individuallashtirishda xotira turini hisobga olish zarurati // Zamonaviy dunyoda individuallik: III xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - Smolensk, 1999. b. 142-147
3. I. H. Iminakhunova "Management and development of students' self education in the process of learning English".
4. Kadirova Munira Rasulovna, Iminaxunova Iroda Xuseynovna "Theoretical analysis of self-education in learning English".
5. Parpieva O.R, Hojkarimova G.T, Nazirova A.M №6(85) 2021. 157-161-bet. (Formation of student pedagogical skills based on the requirements of innovative educational environment// Международном научнопрактическом журнал "Экономика и социум).
6. Arras U. Kompetenzorientierung im Fremdsprachenunterricht – was heißt das eigentlich? [Elektronnyy resurs] // Pandemonium germanicum. – 2009. – 14 (2). – S. 206–217.
URL:http://www.testdaf.de/institution/_Pandemonium_2009_Kompetenzyorientierung.pdf
(data obrazeniya: 15.02.2016)
7. A.Zimnyaya. – Maktabda chet tillarni o'qitish psixologiyasi. – M-Просвещение 1991. 219 b.
8. Bim I. L. ba'zi dolzarb muammolar/maktabda chet tillarini o'qitishning zamonaviy chet tillari, 2001 yil, 4-son. 5-7 betlar
9. Chabner, D. E. The Language of Medicine - New York: W. B. Saunders Company 1998, 1036 p.